IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: LC04226627

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUDYALAR OLIY KENGASHI RAISINING BUYRUG‘I

2026-yil 30-iyun № 64

Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga asosan,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xarid qilinishini ta’minlash bo‘yicha ilovaga muvofiq xarid komissiyasi tuzilsin.

2. Komissiyaga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

-tender va savdolarni o‘rnatilgan tartibda o‘tkazish;

-ehtiyoj uchun sarf qilingan moddiy boyliklarni hisobdan chiqarish;

-tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilish;

-asosiy vositalarni yaroqsiz holati to‘g‘risida xulosaga asosan hisobdan chiqarish.

3. Xarid komissiyasi tomonidan davlat xaridlarini qonunda belgilangan tartib -taomillarga qat’iy rioya etilgan holda tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Sudyalar oliy kengashi raisining o‘rinbosari N.Boboxonova zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **X.Yodgorov**

Kengash raisining
2026-yil 30-iyundagi
64-sonli buyrug‘iga ilova

Xarid komissiyasi a’zolari

T A R K I B I

Komissiya raisi:	**–**	**Buvayev Turg‘unboy Madaminjonovich** - Sudyalar daxlsizligini ta’minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi rahbari
Rais o‘rinbosari:	–	**G‘ulomov Davron Abdiraxmonovich –** Kengash bosh xisobchisi
Komissiya a’zolari:	**–**	**Sadikov Xurshid Primkulovich** - Kengash shu’ba rahbari
	–	**Ziganshina Guzal Ravilevna** - Kengash sudyasi
	–	**Xakimov Ixtiyor Abdusattorovich** - Kengash sudyasi
Komissiya kotibi:	**–**	**Karimov Azizbek Xushnudovich –** Kengash yetakchi inspektori

QQL2836